



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

2-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ..... 290-296	
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025

**Accepted:** 1 February 2025

**Published:** 10 Febrary 2025

*Article / Original Paper*

## **LOYALTY TO NATIONAL IDENTITY – A LIFETIME VALUE**

**Shakirov Mubin Rustamovich**

Bukhara State Pedagogical Institute,  
Associate Professor of Social Sciences,  
Doctor of Philosophy (PhD)

**Abstract.** In this article, in the process of deep socio-economic reforms, which are one of the most important features of our country, a socio-philosophical analysis is made of the realization of national identity, ensuring harmony with the reforms and its impact on ideological changes, the need for renewal of historical thinking. Regarding the culture of historical thinking and its importance in understanding the national identity, some specific aspects were studied and appropriate conclusions were drawn. The issues of creating a fair and impartial history, the socio-philosophical basis of establishing the spirit of loyalty to our national values were studied, and the future tasks in this regard were discussed. It is based on serving to educate and bring up the new generation that will make a worthy contribution to the realization of the national identity of the Uzbek people in the fields of ideological struggle in the world.

**Keywords:** philosophy of history, historical consciousness, historical thinking, national pride, national consciousness, self-awareness, mass culture, global problem, new Uzbekistan, system of spiritual values.

## **MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT**

**Shokirov Mubin Rustamovich,**

Buxoro davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi davrda mamlakatimizda eng muhim xususiyatlardan biri bo'lgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida milliy o'zlikni anglash, islohotlarga hamohangligini ta'minlash va uning mafkuraviy o'zgarishlarga ta'siri, tarixiy tafakkurning yangilanish zarurati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Tarixiy tafakkur madaniyatini va uning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati yuzasidan ayrim o'ziga xos jihatlar o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarilgan. Odil va xolis tarixni yaratish masalalari, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhini qaror toptirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etilib, bu boradagi kelgusi vazifalar haqida mulohaza yuritilgan. Jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash maydonlarida o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan yangi avlodini tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilishi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** tarix falsafasi, tarixiy ong, tarixiy tafakkur, milliy g'urur, milliy ong, o'zlikni anglash, ommaviy madaniyat, global muammo, yangi O'zbekiston, ma'naviy qadriyatlar tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N33>

*Hozirgi zamonda millatning madaniy saviyasi  
uning o'z tarixiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.*

*Jon Bernal*

Madaniyatimizning poydevori bo'lgan tarixiy merosimizni o'rganish – faqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etibgina qolmay, ayni vaqtida buyuk allomalarimiz yaratgan

ma'naviy xazinadan bahramand bo'lishda, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insomning har tomonlama kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda ana shu xazina butun jamiyat a'zolarini, xususan, yoshlarni Vatanni sevish ruhida tarbiyalashda ulkan imkoniyat yaratadi. Shu boisdan ta'lim va tarbiyaning barcha sohalarida yoshlarga tarixiy boyliklarimizni o'rgatib borish zaruriyati kun tartibiga keldi. Tarixni puxta o'rganmasdan turib millatni uyg'otib ham, rivojlantirib ham bo'lmaydi.

O'tmishda millatlar tarixini o'rganish siyosat qo'liga topshirib qo'yilganligi va shu siyosat talabi bilan asl tarixiy haqiqatni ochib berishga xizmat qiladigan hujjatlar, dalillar yashirib kelinganligi xalqlar o'z o'tmishini bilishdan mahrum qilib qo'ygan edi. Amaldagi siyosatning ongida xalq o'z o'tmishini bilib oladigan bo'lsa haq-huquqlari va erkini talab qiladi, degan g'oya hukm surardi. Shu munosabat bilan sobiq ittifoqda tarixchilar, umuman olganda, barcha ziyorolar yolg'on tarixni o'rgatishga safarbar etilgan edi. Ittifoq parchalanishi hamda mustaqillik tarixning ochilmay qolib kelayotgan va buzib talqin qilinayotgan haqiqatlarini ochish va yangicha tahlil qilish imkonini berdi. Yangilanish tarixchilarimiz, badiiy ijod vakillari, ta'lim-tarbiya sohasi xodimlari oldida hal qilinishi kerak bo'lgan zarur vazifalarni qo'ydi. Ularni halollik bilan bajarish O'zbekistonda erkin va demokratik jamiyatni qurish va uni rivojlantirishning kafolatidir. Ammo, bu vazifalar olimlar va ba'zi mutaxassislarning jonbozligi bilan hal qilib bo'lmaydigan masala hisoblanadi. Bu ishda butun jamiyat a'zolarining ongli faoliyati talab qilinadi[1, 170]. O'z o'rnidida buni yaxshi anglab yetgan holda tarixga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu jarayonda bir qator muammolar va ularni yechishning yangi vazifalari mavjud: birinchidan, xalqning boy tarixi, ilmiy, moddiy va ma'naviy yutuqlari aks etgan manbalar arab, fors-tojik tillarida yozilgan; ikkinchidan, manbalarning ma'lum qismlarigina bizda qolgan yoki butunligicha boshqa mamlakatlarga olib ketilgan; uchinchidan, arab, fors-tojik tilini yaxshi biladigan va yetarli tarjimonlik madaniyati shakllangan mutaxassislarni tayyorlash; to'rtinchidan, xorij mamlakatlariga chiqib ketgan manbalarni davlat siyosati darajasida qaytarish choralarini ko'rish; beshinchidan, mashhur ajdodlarimiz yashab, ijod qilgan manzillarga ekspeditsiyalar tashkil etish; oltinchidan, arxeologik tadqiqot ishlarini kuchaytirish kabilardir. Bu vazifalarni bajarishning o'ziga xos murakkab jihatlari mavjud. Ijobiy natijalarni qo'lga kiritish uchun butun jamiyatning ongli safarbarligi talab etiladi. Chunki, xalq qo'lida tariximiz sahifalarini yoritishga xizmat qiladigan, hali tadqiqotchilar nazari tushmagan moddiy va madaniy ko'plab yodgorliklar mavjud[2, 286]. Ularni topish, o'rganish, muzeylarga joylashtirish, qo'lyozma yoki kitob holida bo'lgan manbalarni soha kishilari yordamida o'rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Xalq orasida shunday kasb egalari borki, ular uzoq o'tmishda mavjud bo'lgan xalq an'analarini, xalq san'ati namunalarini bugungi kunda qayta jonlantirib xalqqa taqdim etib kelmoqdalar. Bular, kashtado'zlar, duradgor usta-naqqoshlar, mato to'quvchilar, zardo'zlar, miniyatyrachi rassomlar. Bular qatoriga baxshilar, askiyachilar, hofizlar, raqqos va raqqosalar, qiziqchilarni ham qo'shish mumkin. Shubhasiz, bu soha kishilari ijodi namunalarini xalq tarixiy xotirasini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohalarni rivojlantirish bo'yicha dasturlar tuzish, ular mehnati mahsulini xalqimiz orasida, dunyo miqyosida ommalashtirishga ko'maklashish muhim vazifadir. Chunki, bularning barchasi xalqaro turizmni rivojlantirishga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Aslida sayyohlarni qiziqtiradigan asosiy narsa xalqimizning boy tarixiy merosi, an'analari va urf-odatlaridir. Ular asosan, Forobiy, Ibn Sino,

Xorazmiy, Beruniy, Ulug'beklarni yetishtirgan yurtning nima siri bor, degan savolga javob topish uchun yurtimizga keladilar.

Bular tarixiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning kundalik amaliy tomoni hisoblanadi. Masalaning nazariy tomoni ham borki, uni tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va sotsiologlarning kuzatuvlari va ilmiy tadqiqot ishlari natijasida amalga oshirish mumkin. Bu sohadagi vazifalar “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning “Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat” bo'limida bat afsil o'z aksini topgan. Unda “Milliy o'zlikka sadoqat va millatlararo totuvlik – umrboqiy qadriyatlar” tamoyiliga tayangan holda millatning tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, kim ekanligini, buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-fan va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasidan faxrlanish tuyg'usini yosh avlodda kamol toptirish, milliy o'zligimiz, qadriyat va fazilatlarimizga yot, birligimizga raxna soladigan g'oyalarga qarshi faol kurashish, “O'zbekiston – Yagona Vatan!” g'oyasini singdirish orqali yurtimizda istiqomat qiladigan va elat Vatan taqdiri va taraqqiyoti uchun birday mas'ulligini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Tarix ilmini o'rgatishda uning uzviyligini, ketma-ketligini, murakkabligini, undagi voqealarning doimiy sababli ekanligini hisobga olish kerak. Zero, “biz shu paytgacha ko'proq eski tuzumni tanqid qilish, uni inkor etish bilan band bo'ldik... Endi inkor qilish kayfiyatidan buniyodkorlik kayfiyatiga o'tish payti keldi”[3, 24]. Shunday ekan, asli o'zaro bog'liq bo'lgan o't mish, bugungi kun va kelajakni bir-biridan ajratib, bir-biriga zid qo'yib tahlil etish mumkin emas. O't mish bilan bugungi kun va kelajak o'rtasida uzviy bog'liqlik, vorislik, uzuksizlik mavjud. Shu tufayli ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan turli-tuman manbalar, ashyolar avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzuksizligini ta'minlaydi. “Agar tarix fanining vazifasi o't mishda yuzaga kelgan hodisalar, voqealar to'g'risida ma'lumot to'plash bilan chegaralangan bo'lsa, unda tarixning amaliyotga nafi tegishi amrimaholdir. Aksincha, agar tarixda sodir bo'lgan voqealar bizgacha yetib kelgan manbalar tagida yashirinib yotgan bo'lsa, unda tarixning amaliyot uchun foydaliligiga hech qanday shubha bo'lmasligi tayindir”[4, 27].

O't mish voqealari bugungi kungacha bizga yetib kelgan manbalarda mavjud bo'lib hayotimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan ekan, ularni hozirgi zamon fan va texnika yutuqlari yordamida atroflicha mustaqillik mafkurasiga tayanib chuqurroq va xolisona o'rganish, tahlil qilish tarix fanini ijodiy rivojlantirishga, jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar mohiyatini yaqqolroq ko'rishga, baholashga ham yordam beradi. Chunki, har bir xalq, har bir inson o'z yutuq va kamchiliklarini tarix oynasidagina to'g'ri ko'radi va to'g'ri xulosa qila oladi. “Asosiy maqsad shuki, tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalashdan iborat”[5, 177].

Sho'ro davrida tariximiz ataylab soxtalashtirilganini e'tiborga olsak, asl tariximizni tiklash qonuniy zaruriyat hamdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, o't mish tariximiz nafaqat bugungi kunning muammolarini hal qilishda, balki kelajakni bilishda ham ahamiyatga molikdir. Chunki, o't mishni bilmay turib, hozirgi davr mohiyatini va kelajak zamon maqsadlarini bilish mumkin emas.

Ayrim olimlarning fikricha tarix o't mishda bir marta sodir bo'lib boshqa takrorlanmaydigan yakka-yu yagona voqealarni o'rganadigan fan. Shu tufayli tarix kelajakni

oldindan ko'ra bilishga ojiz, uning vazifasiga keljakni taxminlash, bashorat qilish kirmaydi. To'g'ri, tarix voqealari individual tafsilotga ega. Lekin, shunday bo'lsada, tarix voqealari doimo takrorlanib kelgan va hozirgi kunda ham shunday bo'lib kelmoqda. Demak, tarix voqealari ijtimoiy qonuniyatlar asosida sodir bo'ladigan jarayondir. Shunday ekan, tarix qonuniyatlariga asoslangan holda jamiyat taraqqiyoti yo'naliishlarini bashorat qilish mumkin. Buni hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi[6, 111].

Hozirgi kunda o'tmishda ro'y bergan tarixiy voqealarni, jarayonlarni odilona, xolis yoritish kerak, degan iborani tez-tez ishlatib kelamiz. Bu to'g'ri talab. Bunga erishishning yo'llari, mezonlari nimalardan iborat, ular ilmiy asoslab berilganmi? Bu savol ham o'z javobini kutib turibdi. Fikrimizcha, inson faoliyatining natijasi sifatida yuzaga kelgan tarixiy voqealar, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uchta unsur: a) tarixiy voqealar; b) ularni o'zida aks etuvchi turli xil manbalar, ashyolar; c) tarixiy voqealarni ana shu manbalarda yozib qoldirilgan tarixchilarining ma'lumotlaridan tarix tashkil topadi. Tarixiy jarayon ham obyektiv, ham subyektiv omillar asosida doimo harakatda, o'zgarishda bo'lib turadi. Shunday ekan, tarixiy manbalarda o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni odilona, xolis yoritish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qaysi ilmiy usullar va nazariy yo'naliishlar yordamida erishamiz? Tarixiy voqealarni yoritishda tarixchining unga bo'lgan munosabati, turmush tarzi, dunyoqarashi, tajribasi, shu davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muhit kabilar ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi[5, 126]. Buni inkor qilib bo'lmaydi. Lekin, bundan tarixchilarining faolligi o'tmish voqealarini to'g'ri aks ettirishga imkoniyat bermaydi, degan xulosa chiqarish to'g'ri emas. Tarixchi voqealarni xolis va odilona o'rganishi uchun umumilmay va falsafiy usullardan unumli foydalana bilishi kerak.

Odatda o'tmish tariximizni yoritishdagi kamchiliklar, nuqsonlar, bir yoqlamaliklar ilgarigi hukmron bo'lib kelgan ijtimoiy-siyosiy tuzum va eski mafkuraning salbiy ta'siri bilan izohlanadi. Buni hech inkor etib bo'lmaydi.

Lekin, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, hozirda ham tariximizni soxtalashtirish hollari ham uchraydi. Buni yuzaga kelishida tarixchi-olimlarimizning ham ma'lum darajada hissasi bor. Yuqorida qayd qilganimizdek, tarixchi o'tmishga xolis munosabatda bo'lishi kerak. Xo'sh, bunga erishish uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Fikrimizcha, hozir tarixchi olimlarimiz fan, jamiyat, qolaversa, o'zining vijdoni oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishi, o'zining fikrlash madaniyatini yuksaltirishi, zamonaviy, ilmiy-metodik uslublardan unumli foydalana bilish qobiliyatini shakllantirishi, jahon fani qo'lga kiritgan yutuqlari va tarixiy xulosalarini inobatga olgan holda tadqiqotlar o'tkazishi, yuksak falsafiy dunyoqarashga tayanishi kerak, deb o'ylaymiz.

Bizning tarixchi, etnograf, faylasuf va sotsiolog olimlarimiz diqqatidan chetda qolayotgan yana bir dolzARB masala din va hurfikrlilik tarixi muammolaridir. Afsuski, keyingi vaqtarda barcha taraqqiy etgan mamlakatlar amal qilinayotgan "vijdon erkinligi" qonuniga zid holda ichki hayotimizda bir tomonlama xatti-harakatlar ham namoyon bo'lmoqda. Bizda konstitutsiyamizga mos qayta qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida qonun"[6] hammaga-hukumat idoralari va davlat arboblari, diniy tashkilotlar va barcha vatandoshlarga birday taalluqli. Unga hammamiz chin qalbdan va hurmat bilan amal qilishimiz zarur. Butun el-yurt bu Qonunni shunchaki, xo'jako'rsinga emas, balki chuqur o'rganib, yuragi bilan his etsa va mehri bilan to'g'ri anglab olsa, o'ljamizda osoyishtalik va tinchlik to'la hukmron bo'lishi shubhasiz.

Yoshlarni yangi jamiyat qurishda faol bunyodkor qilib tarbiyalash asosiy maqsad bo'lar ekan, ularning ongiga mustaqillik mafkurasini singdirish, ularning tarixiy ongini o'stirib o'zligini anglash zarur ekan, yuqorida aytilganidek, har tomonlama bilimdon, zamonaviy ilm fanni egallagan, jahon tarixi va etnografiyasini biladigan, umuminsoniy qadriyatlardan xabardor shaxs qilib tarbiyalash birinchi vazifadir[9, 233].

Bizda tarixiy tafakkur mafkuraga aylanmaganligi ta'lif va tarbiya sohasidagi kamchiliklarimizdan biri. U bor-yo'g'i axborot olish ehtiyojidan nari o'tmagan. Olingen tarixiy ma'lumotlar ishlab chiqilib ma'lum maqsad uchun ishlatilmaydi, bu ma'lumotlar falsafiy tahlil qilinmaydi, tarixiy ma'lumotlar xazinasiga tashlab qo'yiladi. Har qanday tarixiy ma'lumot bugun va kelajak uchun quroq sifatida ishlatilmasa bunday tarixiy ma'lumotlardan hech qanday foyda yo'q. Biz bu o'rinda faqat tarixiy tafakkur haqida fikr yuritmoqdamiz. Lekin, tarixiy tafakkur madaniyati shunchaki tafakkur jarayoni emas, u mohiyatan barcha ilmiy tahlil talablariga javob berish imkoniyatiga ega bo'ladigan tafakkur. Uning o'ziga xos aniq talablari bor. Birinchisi — obyektivlik, ikkinchisi-xolislik, uchinchisi-yaxlitlik, to'rtinchisi-ziddiyatsizlik, beshinchisi-izchillik[10, 642].

Tarixiy tafakkur rivojlanishida falsafiy va mantiqiy tarbiyaning tutgan o'rniga e'tibor qaratish kerak. Chunki, falsafa dunyoqarashning boshqa shakllariga qaraganda ancha murakkab, tafakkur oldiga qo'yilgan barcha talablarni o'zida ifodalagan bilim olish quroldir. Mantiq esa tafakkur qonunlari va shakllarini, ular orasidagi munosabatlarni o'rgatadigan quroldir.

Ammo, fan voqelikni aniq qonunlar asosida aks ettirar ekan undagi chuqur mantiqiylikni e'tirof etish zarur. Bu mantiqiylikni fan aks ettiruvchi sohalarning obyektivligida, aks ettirishning har tomonlamaligida, voqeja va hodisalarini murakkab va o'zaro aloqador bo'lgan qismlardan tashkil topganligida, narsa va hodisalarini doimo rivojlanish jarayonida ekanligida ko'rish mumkin. Fan narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni mutlaq va nisbiy haqiqatlar tarzida mavjud bo'lishini va bilimlarning doimo rivojlanish jarayonida bo'lishini qat'iy ta'kidlaydi.

Avvalo bu sohada tarixiy ongning siyosat bilan tushovlab qo'yilganligini ko'rsatish mumkin. Tarixiy tafakkur aslida har qanday cheklardan ozod bo'lishi kerak. Chunki, o't mishni o'zgartirish ham, uni qayta hosil qilishning ham aslo iloji yo'q. Faqat uni xato va to'g'ri aks ettirish mumkin. Tarixni to'g'ri aks ettirishning maqsadi obyektiv tarixni yaratish. O'z navbatida uni buzib ko'rsatishning ham o'ziga xos sabablari mavjud: birinchisi – bilimsizlik; ikkinchisi – g'arazli maqsadlar yo'lida ishlash. Sobiq ittifoq sharoitida bu sabablarning har ikkalasi qo'shilib, uyushib xalqlarning o'z tarixidan mahrum etishga harakat qilib kelindi, natijada xalqlar o'z milliy qadriyatlardan ajralib qoldi.

Insoniyat tarixi inson zoti uchun, millat va xalqning tarixi, bugungi hayoti uchun, shuningdek, ertasi uchun muhim ahamiyatga ega tarixiy bilimlarni doimiy oshirib borish ehtiyoji ana shunday kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixni anglash, tarixiy tafakkurni rivojlantirish barcha fuqarolar, ayniqsa yosh avlod uchun muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti subyekti hisoblangan yoshlarning tarixiy xotirasini rivojlantirish, vatanimiz tarixiga yangicha yondashish, uning turli jarayonlar va voqealarga adolatli baho berish zarur. Yangilanayotgan O'zbekiston xalqini tarixiy tafakkuri madaniyatini yuksaltirishda milliy ruh omilini alohida qayd etish lozim. Yoshlarni tarixdan saboq olishga, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Insoniyat tarixi barcha inson zoti

uchun, millat va xalqning tarixi, bugungi hayoti uchun, shuningdek, ertasi uchun muhim ahamiyatga ega tarixiy bilimlarni doimiy oshirib borish ehtiyoji ana shunday kelib chiqadi. Bu ehtiyoj turli davrlarda va jamiyatlarda turlicha qondiriladi. Yangi O'zbekistonda tarixiy bilimlarni egallash va axloqiy-ma'naviy jihatdan kamol topishning barcha imkoniyatlari ochib berilganligi tahsinga sazovordir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: O'zbekiston. 2017. – B. 471.
2. Туленов Ж.Т. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. – Тошкент: “Мехнат”. 2000. – Б. 126.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент. Маънавият. 2008. –Б. 286.
4. Каримов И. А.. Тарихий хотирасиз келажак йўқ, -Тошкент. Ўзбекистон. 1998.-Б 24.
5. Farb falсаfasи. Назаров Қ. таҳрири остида.-Т.: Шарқ, 2005. 276 бет.
6. Shokirov M.R. Tarixiy jarayonni bilish metodlari asosida tahlil qilish // O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb-saytining ilmiy bo'lumi (elektron jurnal). – Toshkent, 2021-yil, iyun. – B.266-275
7. Shokirov M.R. Yangicha tarixiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning mantiqiy asoslari // Falsafa va huquq. – Toshkent, 2021. №3. – Б.110-113
8. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021-yildagi O'RQ-699-son. <https://lex.uz/docs/5491534>.
9. Жўраев Н.. Тарих – инсон, замон ва макон фалсафаси. // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий методик электрон журнал. №3. 2017. –Б. 233 б.
10. Shokirov M.R. Tarixiy tadqiqotlarida tarixiylik va mantiqiylik metodlarining ahamiyati //Ahmad ibn Hafs Kabir Buxoriy merosi va uning ilk sharq Renessansi hamda islom falsafasi ilmiy-nazariy asoslarini yaratishdagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 2022-yil 16-17-iyun. – Buxoro, 2022. – B.640-643.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).